JIZZAX VILOYATI G‘ALLAOROL TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 29-may | 153-3-45-Q/25 | G‘allaorol tumani hokimligi

G‘allaorol tumanida aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy-sanitariya yordamini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada sog‘liqni saqlash tizimini va aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish tamoyillarini takomillashtirish orqali sohani isloh qilishni izchil davom ettirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 19-maydagi PF-85-son Farmoniijrosini ta’minlash, shuningdek Sog‘liqni saqlash tizimini eng ilg‘or xorijiy tajriba asosida isloh qilish, aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko‘rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirish, sohaga yangi boshqaruv tamoyillarini joriy qilish maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-maydagi PF-85-son Farmoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. G‘allaorol tibbiyot birlashmasi negizida tashkil etilayotgan G‘allaorol tumani sog‘liqni saqlash bo‘limining Nizomi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Sog‘liqni saqlash bo‘limi (X.Saidov)ga:

joriy yilning 1-iyun kuniga qadar G‘allaorol tuman sog‘liqni saqlash bo‘limini belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;

joriy yilning 1-iyul kuniga qadar G‘allaorol tuman sog‘liqni saqlash bo‘limining shtatlar jadvali va xarajatlar smetasini tasdiqlash hamda moliya organidan ro‘yxatdan o‘tkazish;

joriy yilning 1-iyuldan boshlab, G‘allaorol tuman sog‘liqni saqlash bo‘limi shtat me’yoriga muvofiq xodimlarni ishga qabul qilish choralarini ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari G‘.To‘chieyev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **J.Oqboyev**

G‘allaorol tumani hokimining
2025-yil 29-maydagi
153-3-45-Q/25-son qaroriga
1-ilova

G‘allaorol tuman sog‘liqni saqlash bo‘limi

NIZOMI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom G‘allaorol sog‘liqni saqlash bo‘limi faoliyatini tashkil etish va moliyalashtirish tartibini belgilaydi.

Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-maydagi “Sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlarni amalga oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–88-son Farmoniga muvofiq sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli joriy qilingan G‘allaorol tuman sog‘liqni saqlash bo‘limi uchun tatbiq etiladi.

2. G‘allaorol tumani sog‘liqni saqlash bo‘limi tegishli G‘allaorol tibbiyot birlashmasi negizida tashkil etiladi.

3. G‘allarol tuman sog‘liqni saqlash bo‘limi o‘z faoliyatida tegishli hudud hokimligi va sog‘liqni saqlash boshqarmasiga bo‘ysunadi.

4. G‘allaorol sog‘liqni saqlash bo‘limi mustaqil balansga, g‘aznachilik organlarida shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga, o‘z nomi yozilgan gerbli muhrga, shuningdek o‘z faoliyati uchun zarur bo‘lgan boshqa atributlarga ega bo‘lgan davlat boshqaruv organi hisoblanadi.

5. G‘allaorol tuman sog‘liqni saqlash bo‘limi tuman hududida joylashgan oilaviy poliklinikalar va ularning filiallari, tuman markaziy shifoxona, sanitariya-epidemiologiya xizmati markazi hamda boshqa tuman darajasidagi davlat davolash-profilaktika muassasalari faoliyatiga tashkiliy-uslubiy rahbarlikni amalga oshiradi.

6. G‘allaorol sog‘liqni saqlash bo‘limi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, Oliy Majlis palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, ushbu Nizomga, Sog‘liqni saqlash vazirligining buyruqlariga, shuningdek boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

2-bob. G‘allaorol tuman sog‘liqni saqlash bo‘limi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari

7. Quyidagilar G‘allaorol tuman sog‘liqni saqlash bo‘limi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi:

yagona tashkiliy-metodik rahbarlikni va G‘allaorol tumani darajasida aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini nazorat qilishni ta’minlash, shuningdek, tasarrufidagi tibbiyot muassasalari faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish;

davolash-profilaktika, sanitariya-tashviqot va reabilitatsiya tadbirlarini amalga oshirishda tibbiyot muassasalariga uslubiy yordam ko‘rsatish;

hudud aholisi orasida kasalliklarni erta aniqlash, asoratlanishi, nogironlik va barvaqt o‘limning oldini olish choralarini ko‘rish;

tibbiyot muassasalari tomonidan tashxislash va davolash standartlari hamda milliy klinik protokollar asosida sifatli tibbiy yordam hamda laborator va instrumental tekshiruvlar olib borilishini ta’minlash;

aholi orasida kasallanish, shikastlanish, nogironlikni oldini olish, o‘limni kamaytirish bo‘yicha profilaktik tadbirlarni tashkillashtirish hamda amalga oshirish;

sog‘lom turmush asoslarini shakllantirish va mustahkamlash, shuningdek, voyaga yetib kelayotgan avlodni sog‘lom tarbiyalash, ona va bola salomatligini muhofaza qilish, reproduktiv salomatlik, sanitariya va gigiyena, tug‘ma nogironlik va irsiy kasalliklar holatlarini kamaytirish bo‘yicha aholi o‘rtasida profilaktik chora-tadbirlarni tashkillashtirish va amalga oshirish;

davolash-profilaktika muassasasi va bemorlar uyida ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlarning sifat va samaradorligini oshirish maqsadida birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini takomillashtirib borish.

3-bob. G‘allaorol tuman sog‘liqni saqlash bo‘limining asosiy vazifalari va funksiyalari

8. Quyidagilar G‘allaorol tuman sog‘liqni saqlash bo‘limi faoliyatining asosiy vazifalari hisoblanadi:

aholiga sifatli birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko‘rsatishni tashkil qilish;

hudud aholisini profilaktik ko‘riklardan o‘tkazishni muvofiqlashtirish orqali, kasalliklarni erta aniqlash va ularning surunkali shaklga o‘tishiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

shoshilinch, kechiktirib bo‘lmaydigan tibbiy yordam ko‘rsatishni, bemorlarni stasionar davolashni tashkil etish, shuningdek, oilaviy poliklinikalarga hamda o‘z tasarrufidagi tibbiyot muassasalariga tashkiliy-uslubiy rahbarlikni amalga oshirish;

kasalliklarning, shu jumladan, yuqumli va virusli kasalliklarning oldini olish bo‘yicha profilaktika ishlarini hamda ta’sirchan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

oilada tibbiy madaniyatni oshirish, aholining o‘z salomatligi uchun mas’uliyatini oshirishga yo‘naltirilgan dasturlarni amalga oshirish orqali ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi asoslarini shakllantirish va mustahkamlash;

aholi o‘rtasida barkamol sog‘lom avlodni tarbiyalashga, ona va bola salomatligini muhofaza qilishga, tibbiy etika va deontologiya, sanitariya-gigiyena ko‘nikmalari, to‘g‘ri ovqatlanish qoidalariga rioya etishga, tug‘ma va irsiy kasalliklarni kamaytirishga yo‘naltirilgan profilaktika tadbirlarini tashkil etish;

milliy kalendarga binoan profilaktik emlash ishlarini o‘tkazish yo‘li bilan boshqariladigan infeksiyalar va ularning asoratlarini profilaktika qilish ishlarini tashkillashtirish;

malakali mutaxassislarni jalb etgan holda profilaktik tibbiy ko‘riklarni tashkil etish orqali kasalliklarni barvaqt aniqlash bo‘yicha zarur choralarni amalga oshirish;

kechayu-kunduz faoliyat ko‘rsatadigan mobil, belgilangan talablarga muvofiq jihozlangan tez tibbiy yordam kichik stansiyasidan foydalangan holda shifoxonaga yotqizishdan oldingi tez va shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatishni, shuningdek, surunkali kasalliklarga chalingan bemorlarning muntazam kuzatib borilishini, sog‘lomlashtirilishi va reabilitatsiya qilinishini tashkil etish;

yuqumli kasalliklar, zaharlanishlar va favqulodda vaziyatlar to‘g‘risida tegishli xizmatlarni o‘z vaqtida xabardor qilish, shuningdek, sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi tadbirlarni, hudud va uy xo‘jaliklarining sanitariya jihatidan xotirjamligi yuzasidan umumiy nazoratni amalga oshirish, yuqumli kasalliklar o‘choqlarida observatsiya tadbirlarini o‘tkazish, aholini xavfli epidemik vaziyat to‘g‘risida ogohlantirish;

aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko‘rsatishni tashkil etishda oilaviy poliklinikalarga tashkiliy-metodik yordam ko‘rsatish;

bemorlarga tashxislash va davolash standartlari hamda milliy klinik protokollar asosida tibbiy yordam ko‘rsatilishini tashkil etish hamda uning nazoratini ta’minlash;

tibbiyot muassasalariga ajratilgan mablag‘larning samaradorligi hamda natijadorligini monitoring va nazorat qilish.

4-bob. G‘allaorol tuman sog‘liqni saqlash bo‘limining huquqlari va majburiyatlari

9. G‘allaorol tuman sog‘liqni saqlash bo‘limi o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarishda quyidagi huquqlarga ega:

balansidagi davlat mulkidan foydalanish va uni tasarruf etish;

yuqori turuvchi tashkilot bilan kelishgan holda asosiy faoliyat yo‘nalishlarini rejalashtirish;

asosiy vositalarni ijaraga olish yoki ijaraga berish, grant va boshqa moliyaviy yordamlar jalb etish;

professional faoliyatni amalga oshirish jarayonida yaratilgan intellektual mol-mulk ob’yektlariga mualliflik huquqlarini olish va ulardan foydalanish;

tasarrufidagi muassasalar xodimlari uchun mehnatni tashkil etish va unga haq to‘lashning qonunchilikda belgilangan shartlarini kafolatlanishini, texnika xavfsizligini, ijtimoiy ta’minoti va muayyan ijtimoiy himoya qilinishini ta’minlash;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq faoliyatning boshqa turlarini amalga oshirish.

10. G‘allaorol tuman sog‘liqni saqlash bo‘limi quyidagilarga majbur:

aholiga malakali ixtisoslashgan ambulator va stasionar konsultatsiya va davolash-profilaktika yordami ko‘rsatilishini tashkillashtirish;

oilaviy poliklinikalar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ularning shoshilinch tibbiy yordam xizmati va stasionar muassasalar bilan o‘zaro hamkorligini ta’minlash;

olis, chekka hududlarda joylashgan oilaviy poliklinikalarga biriktirilgan aholiga shifokor sayyor tibbiy xizmatlarini tashkillashtirish hamda muvofiqlashtirib borish;

bemorlar huquqlarining, shu jumladan bemor to‘g‘risidagi tibbiy ma’lumotlarning maxfiyligini lozim darajada ta’minlanishini nazorat qilish;

aholini o‘z hohishiga ko‘ra tasarrufidagi birlamchi tibbiy-sanitriya yordami muassasalaridagi tibbiyot brigadalariga biriktirishni tashkil qilish hamda muvofiqlashtirib borish;

tasarrufidagi tibbiyot muassasalari binolarida zarur sanitariya-gigiyena rejimini, aseptika va antiseptika qoidalarini, asboblar hamda materiallarning gemokontakt va boshqa infeksiyalardan profilaktikasini ta’minlovchi sterilizatsiya qilish shart-sharoitlarini saqlab turish;

qonunchilik hujjatlari, mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi, yong‘in xavfsizligi, sanitariya qoidalari va me’yorlari, gigiyenik normativlar talablariga rioya qilishni nazorat qilish;

mavjud tibbiy asbob-uskunalar, jihozlar va mol-mulkning saqlanishini hamda ulardan samarali foydalanilishini ta’minlash;

tasarrufidagi tibbiyot muassasalarining faoliyatiga oid tibbiy hisob va hisobot, statistik va moliyaviy hujjatlarni o‘z vaqtida va to‘liq yuritilishini, saqlanishi hamda ularning davlat saqloviga belgilangan tartibda berilishini ta’minlash.

5-bob. G‘allaorol tuman sog‘liqni saqlash bo‘limi ishini tashkil etish va uni boshqarish

11. G‘allaorol tuman sog‘liqni saqlash bo‘limiga Sog‘liqni saqlash vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan mudir rahbarlik qiladi.

12. G‘allaorol tumani sog‘liqni saqlash bo‘limi mudirining Stasionar bo‘limi boshlig‘i – mudir o‘rinbosari, Oilaviy poliklinikalar bo‘limi boshlig‘i – mudir o‘rinbosari hamda Moliya-iqtisod bo‘limi boshlig‘i – mudir o‘rinbosari bo‘ladi.

Bunda, Stasionar bo‘limi boshlig‘i – mudir o‘rinbosari G‘allaorol tuman sog‘liqni saqlash bo‘limi tasarrufidagi barcha stasionar tibbiyot muassasalarni, Oilaviy poliklinikalar bo‘limi boshlig‘i – mudir o‘rinbosari G‘allaorol tuman sog‘liqni saqlash bo‘limi tasarrufidagi barcha oilaviy poliklinika, ularning filiallari hamda ambulator tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi tibbiyot muassasalarni, Moliya-iqtisod bo‘limi boshlig‘i – mudir o‘rinbosari G‘allaorol tuman sog‘liqni saqlash bo‘limi tasarrufidagi barcha tibbiyot muassasalarining umumiy va iqtisodiy masalalarini muvofiqlashtiradi.

13. G‘allaorol tuman sog‘liqni saqlash bo‘limida asosiy faoliyatni tegishli ixtisoslik bo‘yicha diplomga (sertifikatga) ega bo‘lgan mutaxassislar olib boradi.

14. G‘allaorol tuman sog‘liqni saqlash bo‘limi mudiriga hududning geografik joylashuvi, infratuzilma holati, aholining murojaatlari, kasallanish ko‘rsatkichlari va boshqa asoslangan zaruriyatlarga ko‘ra tor soha shifokorlari va hamshiralar shtat birliklarini mavjud shtat birliklari hamda ajratilgan mablag‘lar doirasida mustaqil belgilash va ehtiyojga ko‘ra oilaviy poliklinikalarga vaqtincha safarbar qilish (rotatsiya) vakolati beriladi.

6-bob. G‘allaorol tuman sog‘liqni saqlash bo‘limining moliya-xo‘jalik faoliyati

15. G‘allaorol tuman sog‘liqni saqlash bo‘limining moliya-xo‘jalik faoliyati qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

16. Asosiy vositalar, boshqa moddiy boyliklar hamda moliyaviy resurslar bo‘limning mol-mulkini tashkil etadi.

17. Quyidagilar G‘allaorol tuman sog‘liqni saqlash bo‘limini moliyalashtirishning asosiy manbalari hisoblanadi:

Davlat byudjeti mablag‘lari;

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi tomonidan ajratiladigan mablag‘lar;

homiylik mablag‘lari, xalqaro tashkilotlarning grantlari;

tasarrufidagi tibbiyot muassasalarining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan ajratmalar;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

18. Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlari joriy qilinishi bilan G‘allaorol tuman sog‘liqni saqlash bo‘limi va uning tarkibidagi tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish uchun Davlat byudjetidan ajratilgan mablag‘lar (kapital qo‘yilmalar, fan va ilmiy izlanishlar, emlash va boshqa maqsadli dasturlar uchun ajratiladigan mablag‘lar bundan mustasno) xarajatlar tasnifining bir satrida o‘tkazilishi uchun alohida shaxsiy g‘azna hisobvaraqlari shakllantiriladi.

19. G‘allaorol tuman sog‘liqni saqlash bo‘limi rahbar xodimlari va boshqa xodimlariga uning byudjetdan tashqari jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan faoliyat samaradorligi ko‘rsatkichlari (KPI) asosida oylik lavozim maoshining 100 foizigacha miqdorda ustama beriladi.

20. G‘allaorol tuman sog‘liqni saqlash bo‘limining byudjetdan tashqari jamg‘armasi mablag‘laridan foydalanish tartibi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

7-bob. Hisob-kitob va G‘allaorol tuman sog‘liqni saqlash bo‘limining hisoboti

21. G‘allaorol tuman sog‘liqni saqlash bo‘limi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda statistika hisobotini yuritadi va uni tegishli sog‘liqni saqlash boshqarmasiga taqdim etadi, hujjatlarning belgilangan standartlarga muvofiq yuritilishi hamda saqlanishiga javob beradi.

22. G‘allaorol tuman sog‘liqni saqlash bo‘limi o‘z faoliyati natijalari to‘g‘risida qonunchilik hujjatlarida bo‘lgan muddatlarda hisobot va boshqa axborotlar taqdim etadi.

23. G‘allaorol tuman sog‘liqni saqlash bo‘limi mudiri tegishli hudud bo‘yicha tibbiy hisob-kitob va hisobotlarning yuritilishi uchun javob beradi.

8-bob. Yakunlovchi qoidalar

24. G‘allaorol tuman sog‘liqni saqlash bo‘limini qayta tashkil etish hamda tugatish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

25. G‘allaorol tuman sog‘liqni saqlash bo‘limi qayta tashkil etilgan va tugatilgan holatlarda qonunchilik hujjatlariga muvofiq xodimlarning huquqlariga rioya qilinishi kafolatlanadi.

26. G‘allaorol sog‘liqni saqlash bo‘limi qayta tashkil etilganda uning huquqlari, majburiyatlari va mulki huquqiy vorisga o‘tadi.

27. Mazkur Nizom qoidalarini buzgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.